



O'ZBEK GILAMDO'ZLIGINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti (Xorazm)

Tarix yo'nalishi 1- bosqich talabasi

Muhammadjonova Mashhura Jamolbek qizi

Elektron po'chta: muhammadjonovamashhura4@gmail.com

Tel: + 998888816232

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda gilamdo'zlik san'atining paydo bo'lishi, tarixi, uning qadimiy ildizlari va hududlar kesimida rivojlanishi haqida so'z yuritadi. Maqolada gilamlarda ishlatilgan ranglar, naqshlar va zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari haqida ma'lumot keltirilgan. Shu bilan birga gilamdo'zlikning milliy madaniy o'rni, xalqaro bozorga chiqishi ham o'rganilgan. Tatqiqot gilamdo'zlik san'atining tarixiy meros sifatida saqlanishi va uning rivojlanish istiqbollari ko'rsatishga qaratilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются возникновение и история искусства ковроткачества в Узбекистане, его древние корни и развитие в разных регионах. В статье приводятся сведения о цветовой гамме ковров, узорах и современных предприятиях, производящих ковры. Также изучается национальная культурная роль ковроткачества и его выход на международный рынок. Цель исследования – сохранение искусства ковроткачества как исторического наследия и показ перспектив его развития.

Abstract: This article discusses the emergence and history of the art of carpet weaving in Uzbekistan, its ancient roots and development in different regions. The article provides information about the colors used in carpets, patterns and modern production enterprises. At the same time, the national cultural role of carpet weaving



and its entry into the international market are also studied. The research is aimed at preserving the art of carpet weaving as a historical heritage and showing the prospects for its development.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, gilamdo‘zlik, hunarmandchilik, meros, milliy.

Ключевые слова: Узбекистан, ковроткачество, ремесло, наследие, национальный.

Keywords: Uzbekistan, carpet weaving, handicraft, heritage, national

Kirish: Gilam xalqning madaniy merosi hisoblanadi. Gilamdo‘zlik – bu xalq amaliy san’atining eng qadimgi turlaridan biridir. Hunarmandchilikning bu turi insonlar turmish tarzida nafaqat amaliy, balki estetik ahamiyatga ega bo‘lgan hunar hisoblandi. To‘qilgan gilamlar faqatgina pol yoki devor bezagi emas balki, asrlar davomida aholining didi, dunyoqarashi, hayot tarzi va diniy e’tiqodlarini ifoda etib kelgan. Gilamlar jundan, paxta ipidan, zig‘ir va ipak tolalaridan to‘qilgan. Gilamchilik san’ati asrlar davomida rivojlanib har bir xalqning o‘ziga xos uslubi naqsh va rang tanlovi shakillangan.

Gilamdo‘zlik insoniyat ehtiyojidan boshlangan, ammo vaqt o‘tishi bilan san’at va madaniyatning muhim qismiga aylangan. Gilamchilik asosan sharq mamlakatlari, xususan, Eron, O‘zbekiston, Turkmaniston, Afg‘oniston va Qozog‘iston kabi sharq davlatlarida muhim o‘rin egallaydi. Har bir mintaqaga o‘ziga xos naqsh va ranglar uyg‘unligi bilan farqlanadi albatta.

O‘zbekiston hududida gilamlarning o‘ziga xos xususiyari asosan to‘g‘ri chiziqlar kvadrat shakllari ishlatilgan. Bu tartib, barqarorlik, himoya manisini anglatgan. Ranglar juda muhim o‘rin tutib, har bir rangning o‘ziga xos ma’nosi bo‘lgan. Masalan: qizil rang gilamlarda juda ko‘p ishlatiladi. Chunki, bu rang hayot, sevgi, kuch va baxt manolarini anglatgan. Moviy rang tinchlikni, yashil rang tabiat, o‘shiva umidni bildirgan.

Ma’lumotlarga qaraganda eng qadimgi (eramizdan avvvvalgi V asrlarga mansub) qo‘lda to‘qilgan gilamlardan biri 1949-yilda arxeologik olim S.N.Rudenko



tomonidan sobiq ittifoq hududining Pazariq vohasidan 5 km uzoqlikda Oltoy tog‘i muzliklaridan topilgan. Gilamning 2500 yil muzliklarda qolib ketishiga qaramay, deyarli shikastlanmay saqlanganligi qadimgi gilamdo‘zlarning ulkan mahoratidan dalolat beradi. Hozirda gilam davlat ermitajida saqlanib kelinmoqda. Saqlanib qolgan materiallar bu san‘atning ayrim turlari, ularning rivojlanishni an‘anaviy va uslubiy xususiyatlarini belgilash imkonini beradi [1].

Grebenkinning ma‘lumotlariga qaraganda, XIX asrning oxirida gilam to‘qish san‘ati quyidagi o‘zbek qabilalari: naymon, ming, qutchi, bag‘rin, xitoy, qipchoq, mitan, turk. O‘zbek qabilalariga yana qoraqalpoqlar ham kirgan. Ular paxmoq gilamlar (pat gilam) va boshqa gilam buyumlari to‘qilgan. O‘zbek gilam mahsulotlarini to‘liq ta‘riflamay turib, A.D.Gerbenkin mitan gilam to‘quvchilarining ishlarini quyidagilarini ajratadi: gilamlar, olacha, gilam, kigiz, namat, xurjunlar va boshqalar [2].

O‘zbek gilamlari yiliga yuzlab ming dollarlik miqdorda xorijga eksport qilinmoqda - AQSh, Turkiya, Eron, Rossiya, Koreya, Xitoy va Yevropa mamlakatlariga “Made in Uzbekistan” brendi ostida o‘zbek gilamlari xalqaro ko‘rgazmalarda faol Xonliklar davri (asosan XVIII–XIX asrlar) O‘zbekistonda, xususan Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarida gilamdo‘zlik san‘ati uchun muhim davr hisoblanadi. Bu davrda gilamchilik nafaqat hunarmandchilik, balki madaniy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega tarmoq sifatida rivojlangan.

Xonliklar davrida hunarmandchilikning gilamdo‘zlik sohasi Buxoro, Xiva va Qo‘qon shaharlarida markaz sifatida rivojlangan. Gilam to‘qish maxsus hunarmandlar (gilamchi, to‘quvchi) tomonidan amalga oshirilgan. Har bir shahar yoki hududda o‘ziga xos naqsh va uslublar paydo bo‘lgan. Xonliklarning iqtisodiy hayotida gilamlar muhim mahsulot bo‘lgan. Gilamlar Ipak yo‘li orqali boshqa mamlakatlarga eksport qilingan, savdo aylanmasining bir qismi bo‘lgan. Gilamsozlar o‘z mahsulotlarini nafaqat mahalliy bozorga, balki Turkiston, Markaziy Osiyo va undan tashqariga ham chiqargan. Gilamlar nafaqat amaliy buyum sifatida,



balki zodagonlar va boy tabaqalar hayotining ajralmas qismi bo'lgan. Xonliklar saroylari va diniy maskanlarda gilamlar bezak uchun keng qo'llangan. Gilamlarda an'anaviy naqshlar, diniy yozuvlar, o'simlik va hayvonot tasvirlari o'z ifodasini topgan. Gilamdo'zlikda qo'l mehnati ustun bo'lib, jun, ipak va ba'zan paxta iplaridan foydalanilgan. Har bir xonlik hududida o'ziga xos gilam uslubi va naqsh tili yuzaga kelgan. Masalan, Buxoro gilamlari ko'proq geometrik va floral naqshlarga ega bo'lsa, Xiva gilamlari ko'proq murakkab arabeska va ramziy tasvirlarga boy.

XI-XII asrlarda O'rta Osiyoda, shu jumladan, O'zbekiston territoriyasida gilam to'qish san'ati juda rivojlangan. XIV asrda esa O'zbekiston territoriyasida gilam to'qish sanati rivojlanmay qoldi, chunki mongol bosqinchilari O'rta Osiyoni egallab olgan edi. XIV asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning Amir Temur qo'liga o'tishi bilan bu soha yana rivojlanib ketdi. Har xil xorijiy mamlakatlardan olib kelingan ustalar gilam to'qish ustaxonalarida ishlaganlar [3].

XX asr boshlarida Qo'qon, Samarqand, Andijon, Buxoro O'rta Osiyoning gilam to'qib sotish markazi hisoblangan. Gilam to'qiydigan mashinalar ixtiro etila boshlandi. Xiva, Andijon, Qarshi, Urgut shaharlarida gilam to'qiydigan korxonalar ochildi. Andijonda «Mehchamguli» arteli qoshida gilam to'qish kursi ochildi. Artelga Farg'ona vodiysidagi Oyim qishlog'idan katta usta Mehriniso Teshaboyeva taklif etildi. Jumhuriyatda gilamdo'zlikni rivojlantirish uchun Turkmanistondan mashhur ustalar taklif etildi va ko'plab gilamdo'z ustalar tayyorlab berildi [4]

O'zbekistonning har bir hududi o'ziga xos uslublar bilan mashhur. Hududiy gilamlarning asosiy farqlari ularning naqshlarida, rang tanlovida va ishlab chiqarish texnikasida namoyon bo'ladi:

Samarqand gilamlari - yorqin ranglar, asosan qizil, ko'k va yashil ranglar bilan ajralib turadi. Bu gilamlarda ko'pincha katta gul naqshlari va o'ymakor elementlar ishlatiladi.



Buxoro gilamlari - jiddiy geometrik shakllar, ko‘pincha romboid shakllar va kvadrat naqshlari bilan mashhur. Ularning ranglari odatda jiddiy va chuqur, masalan, quyuq qizil va to‘q ko‘k ranglar.

Xiva gilamlari - bu gilamlar mozaika naqshlari va murakkab geometrik shakllari bilan ajralib turadi. Ranglar ko‘pincha tabiiy va pastel tuslarda bo‘lib, ularning nafisligi va soddaligi e‘tiborni tortadi.

O‘zbekistonda gilam to‘qish maktabi asosan ikki yo‘nalishda – Samarqand va Andijon gilamlari o‘ziningchidamliligi, pishiqligi, ranglarning aniqligi, koloriti bilan farq qiladi. Farg‘ona, qoraqalpoq gilamlari, asosan, ikki xil, ya‘ni qizil va to‘q ko‘k gammada to‘qiladi. O‘zbek gilamlarining chetiga ruta, o‘rtasiga turunj yoki doira naqsh ishlanadi. Samarqand gilamdo‘zlik maktabiga Samarqand va Buxor viloyatlaridagi gilam to‘quvchilar kiradi. Buxoro gilamlari o‘zining rang-barangligi kattaligi, uzun patligi va chiroyli naqshlari bilan ajralib turadi. Samarqand gilamlari qisqa patli, markazida turunj chetiga alohida-alohida naqshlar ishlanadi. “Qalqon” deb nomlangan turunj naqshi juda ko‘p ishlanadi. Gilamlar hoshiyador, estetik jihatdan chiroyli ishlangan bo‘ladi [5]

Bugungi kunda O‘zbekiston hududida gilamdo‘zlik sohasida bir qancha muhim va ijobiy o‘zgarishlar olib borilmoqda. Hozirda bu soha nafaqat hunarmandchilik, balki iqtisodiy, madaniy va eksport sohalariga ega tarmoq sifatida rivojlanmoqda. So‘nggi yillarda gilam to‘qishga ixtisoslashgan yirik korxonalar ochildi. Masalan: “Bukhara Carpet” (Buxoro) “Khiva Carpet” (Xiva) “Samarkand Carpet” va boshqa ko‘plab gilam ishlab chiqaruvchi korxonalar. Turistik markazlarda joylashgan gilam do‘konlari xorijlik sayyohlarga milliy mahsulotni targ‘ib qilmoqda.

Xulosa: O‘zbekiston gilamdo‘zligi yurtimizning qadimiy, chuqur ildizlariga ega bo‘lgan milliy madaniy meroslardan biridir. Uning tarixi ming yillar davomida shakllanib, har bir davrda o‘ziga xos uslub bilan boyib borgan. Zamonaviy davrda esa gilamdo‘zlik sohasida ijobiy islohotlar amalga oshirilgan. Ayniqsa tabiiy



bo‘yoqlar, ekologik toza xom- ashyolar va milliy naqshlar asosida yaratilgan gilamlar xorijiy bozorlar va sayyohlar orasida katta talabga ega bo‘lmoqda. Shu sababli, O‘zbekiston gilamchilik an‘analari nafaqat o‘tmishdagi madaniy boylikni aks ettiradi, balki bugungi kunda xalqaro bozorda o‘z o‘rnini topayotgan, iqtisodiy imkoniyatlarga ega milliy san‘at turi sifatida qadrlanishi lozim. Bu sohani ilmiy o‘rganish, targ‘ib qilish, yosh avlodga o‘rgatish milliy merosimizni saqlash va rivojlantirish bizning muhim vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Botirboyeva Sh. Gilamchilik tarixi va uning to‘qilish tarixi. “Yangi O‘zbekistonda yangi izlanishlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy online konkerensiyasi. 2025-yil. 3 bet
2. Matkarimov A. Xalq hunarmandchiligi va uni loyhalash. Namangan 2022-yil. 330 bet
3. Masharipova N. Gilam to‘qish san‘ati tarixini o‘rganish.
4. Saidov A. Gilam va gilamdo‘zlik. – Toshkent 1278. 15 b.
5. To‘xsanova V. Amaliy san‘at turlari.
6. <https://arxiv.uz>.